

“TASDIQLANGAN”

“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki

O‘zbekiston Respublikasi
Istiqbolli loyihalar milliy agentligi

Kuzatuv kengashi a‘zosi

Direktorning birinchi o‘rinbosari



F.R. Nuragliyev



V.Yu. Pak

Kuzatuv kengashi majlisining
2024-yil 1-iyundagi
18-sonli bayonnomasi

2024-yil 24.06.2024

P0005-31- son



M.O‘.

AKSIYALAR QO‘SHIMCHA CHIQARILISHI TO‘G‘RISIDAGI QAROR
“MIKROKREDITBANK” AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI

Identifikatsiya raqami berildi:

R U 1 3 1 P 0 0 0 5 R O

Nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so‘m bo‘lgan 1 893 791 781 (bir milliard sakki yuz to‘qson uch million yetti yuz to‘qson bir ming yetti yuz sakson bir) dona umumiy qiymati 2 022 569 622 108 (ikki trillion yigirma ikki milliard besh yuz oltmish to‘qqiz million olti yuz yigirma ikki ming bir yuz sakkiz) so‘mlik oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi aksiyalar

Aksiyalar yopiq obuna usuli bilan joylashtiriladi.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi o‘ttiz birinchi chiqarilishdir.

Tasdiqlangan: “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 1-iyundagi 18-sonli bayonnomasi bilan

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 1-iyundagi 18-sonli bayonnomasi asosida

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili – 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko‘chasi, 4-uy. Telefon: (71) 202-99-99. Faks: (71) 273-96-29. Elektron pochta manzili: info@mikrokreditbank.uz

Boshqaruv raisi

O.A. Butayev

Bosh buxgalter

J.S. Sagdullaev



Sana: 2024-yil 1-iyun

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): **Oddiy.**
2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli – **Hujjatsiz.**
3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm): **1 068 so'm.**
4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona): **1 893 791 781 dona.**
5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm): **2 022 569 622 108 so'm.**
6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:
Ushbu chiqarilishdagi har bir oddiy aksiya egalariga quyidagi huquqlarni beradi:
 - Bankning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
 - depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
 - Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
 - Bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
 - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;
 - Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
 - olgan dividendini erkin tasarruf etish;
 - qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
 - o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
 - o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
 - qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urtalash.**Aksiyadorlar qonunchilikda va Bank ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.**
7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:
Bank chiqarilish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga yopiq obuna orqali qonunchilikda o'rnatilgan tartibda joylashtiriladi.
O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Qonuniga muvofiq quyidagi cheklashlar mavjud:
Davlat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida boshqa davlat tashkilotlari nomidan bank muassisi va aksiyadori bo'lishi mumkin. Ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas;
Norezident bo'lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak;
Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:
 - besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;
 - yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;

- ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart;

Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etish nazarda tutilmaydigan davlatda yoki hududda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va shunday davlatda yoki hududda yashaydigan jismoniy shaxslar bankning muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas (bundan chet el fond bozorlarida bank aksiyalarini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar mustasno).

8. Bank ustav kapitalining miqdori (so'm): 3 795 323 565 000 so'm;

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):

Chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni: 3 553 673 750 dona.

Shundan:

- egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar – 3 553 538 750 dona;

- egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar – 135 000 dona.

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):

Bank tomonidan 5 000 (besh ming) dona egasining nomi yozilgan foizli korporativ obligatsiyalar joylashtirilgan. Bundan:

Bank obligatsiyalarining I (birinchi) chiqariluv 2010-yil 15-sentabr kuni R0850-son bilan Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida ro'yxatga olingan.

A) Chiqarilishdagi obligatsiyalar seriyasi va shakli: Egasining nomi yozilgan, foizli, hujjatsiz shakldagi korporativ obligatsiyalar.

B) Chiqarilishdagi obligatsiyalar soni: 3 000 dona.

D) Chiqarilishdagi bir dona obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 so'm.

E) Chiqarilishning umumiy hajmi (nominal qiymati bo'yicha): 3 000 000 000 so'm.

Ushbu chiqariluvga asosan chiqarilgan korporativ obligatsiyalar so'ndirilganligi munosabati bilan Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2015-yil 10-noyabrdagi 15-07/181-sonli qaroriga asosan bekor qilingan.

Bank obligatsiyalarining II (ikkinchi) chiqariluv 2012-yil 4-oktabr kuni R0850-2-son bilan Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida ro'yxatga olingan.

A) Chiqarilishdagi obligatsiyalar seriyasi va shakli: Egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, foizli korporativ obligatsiyalar.

B) Chiqarilishdagi obligatsiyalar soni: 2 000 dona.

D) Chiqarilishdagi bir dona obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 so'm.

E) Chiqarilishning umumiy hajmi (nominal qiymati bo'yicha): 2 000 000 000 so'm.

Ushbu chiqariluvga asosan chiqarilgan korporativ obligatsiyalar so'ndirilganligi munosabati bilan Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2017-yil 27-noyabrdagi 15-07/030-sonli qaroriga asosan bekor qilingan.

11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar yopiq obuna usuli bilan Bank aksiyadorlarining imtiyozli ravishda olish huquqi qo'llanilgan holda quyidagi aksiyadorlarga joylashtiriladi:

Aksiyador nomi	Joylashtiriladigan aksiyalar soni (dona)
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	740 082 820
O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1 153 708 961
Jami	1 893 791 781

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 180 (bir yuz sakson) kun davomida joylashtiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi xabar va aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli olish huquqi to'g'risidagi bildirishnoma qonunchilikka muvofiq e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n birinchi kun, biroq imtiyozli olish huquqining amal qilish muddati o'tguniga qadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, aksiyalarni joylashtirish ushbu arizalar kelib tushgan kundan keyingi ish kunida boshlanadi. Agar aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda aksiyalarni joylashtirish keyingi birinchi ish kunida boshlanadi.

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun, biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, ushbu aksiyalar vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 180 (bir yuz sakson) kundan oshmasligi lozim.

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

Aksiyadorlarning imtiyozli ravishda olish huquqi qo'llanilgan holda, chiqarilayotgan aksiyalar yushmagan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida to'g'ridan-to'g'ri fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish orqali qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Aksiyadorlarning imtiyozli olish huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin, qolgan aksiyalar qonunchilikda belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi savdo maydonchasida uning qimmatli qog'ozlar bilan savdo o'tkazish qoidalariga muvofiq bitimlar tuzish orqali tegishincha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga joylashtiriladi.

Aksiyadorlarning imtiyozli olish huquqining amal qilish muddati tugaguniga qadar chiqarilayotgan aksiyalar imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirilmaydi.

Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida anderrayterlar jalb qilinishi ko'zda tutilmagan.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi haqida ma'lumot:

to'liq nomi: **“Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati;**

joylashgan joyi va pochta manzili – 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shohko'chasi, 107-uy;

telefon: (71) 267-37-42, faks: (71) 267-36-94, el.pochta: info@uzcsd.uz, internet manzili: www.uzcsd.uz;

litsenziya – mavjud emas; tashkiliy-huquqiy shakli – aksiyadorlik jamiyati.

Bank tomonidan chiqarilgan davlat ulushiga tegishli aksiyalar bo'yicha egalik huquqlarini hisobini yuritish **“Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati** tomonidan, boshqa aksiyadorlarga tegishli aksiyalar bo'yicha egalik huquqi esa investitsiya vositachilari tomonidan amalga oshiriladi.

Bank bilan amaldagi shartnomaga ega, aksiyalarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi haqida ma'lumot:

to'liq nomi: **“DEPO-INVEST-TRAST” mas'uliyati cheklangan jamiyati;**

joylashgan joyi va pochta manzili – 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko'chasi, 6-uy, 87-xonadon;

telefon: (78) 150-39-54, faks: (78) 150-39-53. el.pochta: depintra@mail.ru;

litsenziya raqami: 1258;

litsenziya bergan organ: O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi **Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazi;**

litsenziya berilgan sanasi: 2014 yil “4” mart;

litsenziya amal qilish muddati: **Muddati cheklanmagan.**

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega.

Aksiyador ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega bo'ladi.

Bank aksiyalarini imtiyozli olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati 2024-yil 1-iyun kuni holatiga shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

Bank aksiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida ommaviy axborot vositalarida bildirishnomani e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni olishni taklif etadi.

Bildirishnoma matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Bankka (Bankning Bosh ofisi yoki Bank hududiy bo'linmalari orqali) yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida Bankka (Bankning Bosh ofisi yoki Bank hududiy bo'linmalari orqali) taqdim etilishi kerak.

Aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli olish huquqi bildirishnoma e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kun davomida amal qiladi.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi.

Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar, shu jumladan imtiyozli huquq bo'yicha 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so'mdan joylashtiriladi.

11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:

Aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida faqat pul mablag'lari bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga muvofiq naqdsiz shaklda hamda boshqa aksiyadorlar tomonidan naqd va (yoki) naqdsiz shaklda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan naqd va (yoki) naqdsiz shakldagi pul mablag'lari, shu jumladan plastik kartalardagi pul mablag'lari ko'chirilishi lozim bo'lgan Emitentning bank rekvizitlari – bank nomi: "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (qisqa nomi: "Mikrokreditbank" ATB), bank manzili: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 4-uy, bank tarkibiy bo'linmasi nomi: Amaliyot boshqarmasi (qisqa nomi: Amaliyot boshqarmasi), bank tarkibiy bo'linmasi manzili: 100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy, bank STIR: 200547792, bank hisobvaraqlari: 29830000300000433277

(O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi uchun), 29830000604515255001 (O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi uchun) va 29830000900000433213 (boshqa aksiyadorlar uchun), bank kodi (MFO): 00433 bo'yicha qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, aksiyalar uchun to'langan pul mablag'lari Bank-emitentning tegishli hisobvaraqlarida hisobi yuritiladi.

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning oltmish foizdan kam qismi joylashtirilganda, ushbu chiqarilish amalga oshmagan deb e'tirof etiladi.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, Bank tomonidan ushbu holat to'g'risida o'rnatilgan tartibda rasmiy ma'lumot Bank veb-saytida, korporativ axborot yagona portalida hamda "Toshkent" Respublika fond birjasi veb-saytida o'rnatilgan tartibda e'lon qilinadi.

Aksiyalar uchun to'langan mablag'lar aksiyadorlarning arizasida ko'rsatilgan banklardagi hisobvaraqlariga ushbu chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 (o'n) kun davomida to'liq o'tkazib beriladi.

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi axborotning oshkor qilinishi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot (muhim fakt) va qonunchilik bilan belgilangan boshqa ma'lumotlar, aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng qonunchilik bilan o'rnatilgan muddatda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Axborot-ma'lumot tizimi manzili – www.mikrokreditbank.uz, www.uzse.uz, www.openinfo.uz.

Bank qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorining asli va nusxasi bilan Toshkent shahar, Amir Temur shox ko'chasi, 4-uy manzili bo'yicha joylashgan "Mikrokreditbank" ATBning Bosh ofisida hamda bankning veb-saytida tanishish mumkin.

13. Boshqa ma'lumotlar.

Ko'zda tutilmagan.

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki

6 (olti)) varaqda raqamlangan va tikilgan

Boshqaruv raisi v.b.

O. Butayev

Bosh buxgalter

J. Sagdullayev

